



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



ORIENTAL UNIVERSITETI
Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

61010200 – Sport faoliyati: dzyu-do
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

61010200 – Sport faoliyati: dzyu-do

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

ORIENTAL UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: MUXAMMADIYEV KOMIL BURXONOVICH

Xalqaro kurash instituti

Fan doktori (DSc)



A'zo: CHORSHAMIYEV NURIDDIN ABDIALIMOVICH

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Fan doktori (DSc)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260078
Xulosa raqami	1134
Xulosa sanasi	06.07.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"ORIENTAL UNIVERSITETI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Olmazor tumani, Noroztepa ko'chasi, 52-uy. Litsenziya: № 1359849, 25.05.2021. Guvohnoma: MAS № 0000379, 23.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Sport faoliyati: dzyu-do
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	61010200
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 1359849, 25.05.2021
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	61010200 – Sport faoliyati: dzyu-do
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	61010200 – Sports Activity: Judo
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	61010200 – Спортивная деятельность: дзюдо
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi / kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Murabbiy, jismoniy tarbiya o'qituvchisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat tomonidan tan olinadigan diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	400 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Olmazor tumani, Noroztepa ko'chasi, 52-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Qisman muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Qisman muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

O'rganilgan hujjatlar va taqdim etilgan dalillar asosida ta'lim dasturining tashkiliy-boshqaruv tizimi hamda ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari baholandi. Baholash natijalari 2025-yil 29-avgustda tasdiqlangan "Jismoniy madaniyat" kafedrası nizomi asosida ta'lim dasturini amalga oshirishga mas'ul tarkibiy tuzilma aniq belgilanganini, shuningdek, rivojlantirish yo'l xaritasi va ehtimoliy xavflarni boshqarishga qaratilgan tahliliy hujjatlar ishlab chiqilganini tasdiqladi. Shu bilan birga, 1.3-mezon bo'yicha ichki sifatni ta'minlash mexanizmlarini hujjatlashtirish jarayonini to'liq yakunlash zarurligi, 1.4-mezon bo'yicha esa mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari monitoringi natijalarini tizimli ravishda rasmiylashtirish hamda ularni boshqaruv qarorlariga izchil integratsiya qilish lozimligi aniqlandi. 2026-yilda ikki marotaba so'rovnomalar o'tkazilgani manfaatdor tomonlar fikrini o'rganish va monitoring amaliyotining yo'lga qo'yilganini tasdiqlaydi, biroq ushbu jarayonlarni hujjatlashtirish va tizimlashtirishni yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Baholash yakunlariga ko'ra, mazkur yo'nalish umumiy hisobda akkreditatsiya mezonlari talablariga muvofiq deb e'tirof etildi, 1.3 va 1.4-mezonlar esa qisman muvofiq deb baholandi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Taqdim etilgan o'quv-uslubiy hujjatlar va ta'lim dasturiga oid materiallar asosida uning mazmuni, maqsadlari hamda kutilayotgan o'quv natijalari baholandi. O'rganish natijalari ta'lim dasturining maqsadlari, o'quv natijalari va o'quv reja tarkibi tizimli ravishda shakllantirilganini, fanlar ketma-ketligi dzyudo sport turining nazariy-metodik asoslari hamda amaliy tayyorgarlik bosqichlari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash tamoyili asosida ishlab chiqilganini ko'rsatdi. Shuningdek, ta'lim dasturini ishlab chiqish, muhokama qilish, tasdiqlash va muntazam takomillashtirish tartiblari

amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida yo'lga qo'yilgani, dastur mazmunini shakllantirishda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani e'tirof etildi. Bitiruvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalarning "Murabbiy, jismoniy tarbiya o'qituvchisi" kvalifikatsiyasi talablariga yo'naltirilgani, ularning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallashiga xizmat qilishi ta'lim dasturining muhim ustunliklaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturi mazmuni akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablar va sifat standartlariga muvofiq ekanligi e'tirof etildi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

O'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar va amaldagi amaliyot kompleks baholandi. Tahlil natijalariga ko'ra, o'quv reja, fan dasturlari va sillabuslar tizimli ravishda shakllantirilgani, ularni ishlab chiqish va takomillashtirish jarayonida ish beruvchilar, soha mutaxassislari hamda talabalarning ishtiroki ta'minlangani kuzatildi. Shuningdek, ta'lim jarayonida bilimlarni baholash mezonlari aniq belgilanganligi, baholashning shaffofligi va xolisligini ta'minlashga qaratilgan tartiblar joriy etilgani, akademik halollik tamoyillarini qo'llash bo'yicha ichki mexanizmlar amaliyotda samarali qo'llanayotgani e'tirof etildi. Manfaatdor tomonlar tomonidan bildirilgan taklif va tavsiyalarning o'quv rejalari, fan dasturlari hamda boshqa o'quv-uslubiy hujjatlarda o'z aksini topishi ta'lim dasturini doimiy takomillashtirish, uning zamonaviy talablarga mosligini ta'minlash va sifatni oshirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlariga ko'ra, o'quv jarayonini tashkil etish tizimi akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga to'liq javob berishi hamda mazkur yo'nalish bo'yicha sifat talablarining ta'minlangani baholash davomida o'z ifodasini topdi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

Talabalar faoliyatini tashkil etish va ularni akademik hamda tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar va amaldagi tartiblar baholandi. O'rganish natijalari qabul jarayoni, talabalar harakati hamda qo'llab-quvvatlash mexanizmlari Vazirlar Mahkamasining 578-son qarori va universitetning ichki me'yoriy hujjatlari asosida tashkil etilganini ko'rsatdi. Qabul mezonlari, kirish sinovlarida qo'llaniladigan fanlar majmuasi, bilimlarni baholash tartibi hamda apellyatsiya mexanizmlarining ochiq va aniq belgilanganligi ta'lim jarayonining shaffofligini ta'minlayotgani e'tirof etildi. Shuningdek, imtihon natijalarini o'z vaqtida e'lon qilish, apellyatsiya murojaatlarini belgilangan tartibda ko'rib chiqish

hamda talabalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan tartiblarning amalda qo'llanilishi ta'lim jarayonida adolat, xolislik va teng imkoniyatlarni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlariga ko'ra, talabalar faoliyatini tashkil etish tizimi akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga mos ravishda yo'lga qo'yilgani qayd etildi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

Inson resurslari yo'nalishi doirasida professor-o'qituvchilar tarkibi, boshqaruv va o'quv-yordamchi xodimlar salohiyatiga oid hujjatlar kompleks tahlil qilindi. Baholash natijalari ta'lim dasturini amalga oshirishga 18 nafar professor-o'qituvchi jalb etilgani, ularning mutaxassisligi o'qitilayotgan fanlar bloklariga mos kelishi hamda boshqaruv va o'quv-yordamchi xodimlarning salohiyati ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun yetarli darajada shakllantirilganini ko'rsatdi. Shuningdek, professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida malaka oshirish tizimi yo'lga qo'yilgani, ilmiy salohiyatni mustahkamlashga qaratilgan PhD tayyorlash rejalari ishlab chiqilgani e'tirof etildi. Murabbiylik faoliyatida amaliy tajribaga ega professor-o'qituvchilar ulushining yuqoriligi talabalarning kasbiy-amaliy tayyorgarligini kuchaytirish, nazariy bilimlarni sport amaliyoti bilan uyg'unlashtirish hamda ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlariga ko'ra, inson resurslarini boshqarish tizimi akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablar darajasida tashkil etilgani baholandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar hamda mavjud infratuzilma joyiga chiqib o'rganish jarayonida kompleks baholandi. Tahlil natijalariga ko'ra, dzyudo zallari, sport majmuasi, zamonaviy jihozlangan o'quv xonalari, axborot-resurs markazi hamda raqamli ta'lim muhiti ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlayotgani aniqlandi. Joyiga chiqib o'rganish davomida qoralama hisobotda qayd etilgan moddiy-texnik imkoniyatlar, sport inshootlari va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish uchun yaratilgan sharoitlar amalda mavjudligi hamda ulardan samarali foydalanilayotgani kuzatildi. Ixtisoslashgan sport infratuzilmasining mavjudligi talabalarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish, mashg'ulotlar sifatini oshirish va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlariga ko'ra, moddiy-texnik va axborot-resurs ta'minoti

akkreditatsiya mezonlarida nazarda tutilgan talablarni to'liq qamrab olishi hamda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun yetarli darajada shakllantirilgani xulosa qilindi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ichki sifatni ta'minlash mexanizmlarini hujjatlashtirish to'liq yakunlanmagan (1.3-mezon).
- ✓ Mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari monitoringi natijalarini tizimli rasmiylashtirish talab etiladi (1.4-mezon).
- ✓ Kafedra nizomida ilmiy-tadqiqot faoliyatiga oid vazifalarni aniqroq aks ettirish zarur.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Ichki sifatni ta'minlash mexanizmlarini hujjatlashtirish jarayonini yakunlash va monitoring natijalarini boshqaruv qarorlariga tizimli ulash (1.3-mezon).
- ✓ Mehnat bozori, ta'lim ehtiyojlari va ilmiy tendensiyalar monitoringini muntazam hujjatlashtirilgan tizimga aylantirish (1.4-mezon).
- ✓ Kafedra nizomida ilmiy laboratoriyalar, sport inshootlari va tadqiqot vazifalarini aniqroq aks ettirish.
- ✓ Xalqaro sport hamkorligi va almashinuv dasturlarini kengaytirish.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Oriental universitetida 61010200 – "Sport faoliyati: dzyu-do" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv tizimi, inson resurslari hamda moddiy-texnik baza kompleks ravishda baholandi. Tahlil jarayonida ta'lim dasturini boshqarish va rivojlantirishga mas'ul tarkibiy tuzilma faoliyati yo'lga qo'yilgani, rivojlantirish yo'l xaritasi hamda xavflarni boshqarishga oid yondashuvlar ishlab chiqilgani, dastur davlat ta'lim standarti, Milliy malakalar ramkasi va mehnat bozori ehtiyojlari asosida shakllantirilgani aniqlandi. Shuningdek, o'quv jarayoni shaffof baholash tizimi va akademik halollik tamoyillari asosida tashkil etilgani, talabalarni qabul qilish hamda ularni akademik va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari amalda

qo'llanilayotgani, professor-o'qituvchilar tarkibi ta'lim dasturi ehtiyojlariga mosligi, shuningdek dzyudo sport turi bo'yicha zarur sport infratuzilmasi, axborot-resurs bazasi va raqamli ta'lim muhiti bilan ta'minlanganligi baholash davomida o'z ifodasini topdi. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturi bo'yicha ko'rib chiqilgan 27 ta mezondan 25 tasi muvofiq, 1.3 va 1.4-mezonlar esa qisman muvofiq deb baholandi. Aniqlangan kamchiliklar ta'lim dasturini amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan hamda ichki sifatni ta'minlash mexanizmlarini hujjatlashtirish va mehnat bozori ehtiyojlari monitoringi natijalarini tizimli rasmiylashtirish orqali bartaraf etilishi mumkin bo'lgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman olganda, mavjud dalillar va baholash natijalari 61010200 – "Sport faoliyati: dzyu-do" bakalavriat ta'lim dasturining akkreditatsiya mezonlarida belgilangan asosiy talablar va sifat standartlariga mos kelishini ko'rsatdi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	20.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	5-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

